Zaripova Hulkar Toxir qizi (Mirzo Ulug‘bek nomidagi Milliy universitet, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) doktoranti; e-mail: hulkar.zaripova@gmail.com)

MARGINALLIKNING O‘ZBEKISTON IJTIMOIY-MADANIY HAYOTIDAGI KO‘RINISHLARI VA TA’SIRI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada marginallik tushunchasi hamda uning O‘zbekiston ijtimoiy-madaniy hayotida namoyon bo‘lish shakllari, jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi tafovutlar, urbanizatsiya jarayonlari, migratsiya, madaniy qadriyatlarning o‘zgarishi kabi omillar marginallikning shakllanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, marginallikning shaxs va jamiyat hayotiga ijobiy hamda salbiy ta’sirlari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *jamiyat, modernizatsiya, globallik, milliylik, ijtmoiy-madaniy, guruhlar, identifikatsiya, eksiztensial, postmodernizm.*

ПРОЯВЛЕНИЯ И ВЛИЯНИЕ МАРГИНАЛЬНОСТИ В СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНОЙ ЖИЗНИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация: *В данной статье рассматривается понятие маргинальности, а также формы её проявления в социально-культурной жизни Узбекистана. Анализируются такие факторы, как различия между социальными группами в обществе, процессы урбанизации, миграция и изменения культурных ценностей, и их влияние на формирование маргинальности. Также освещаются как положительные, так и отрицательные последствия маргинальности для личности и общества.*

Ключевые слова: *общество, модернизация, глобальность, национальность, социально-культурный,* ***группы,*** *идентификация, экзистенциальный, постмодернизм.*

MANIFESTATIONS AND IMPACT OF MARGINALITY IN THE SOCIO-CULTURAL LIFE OF UZBEKISTAN

Annotation. *This article examines the concept of marginality and the forms of its manifestation in the socio-cultural life of Uzbekistan. It analyzes how factors such as differences between social groups in society, processes of urbanization, migration, and changes in cultural values influence the formation of marginality. The article also highlights both the positive and negative impacts of marginality on individuals and society.*

Keywords: *Society, modernization, globalization, nationality, socio-cultural, groups, identification, existential, postmodernism.*

Kirish. Marginallik O‘zbekiston ijtimoiy-madaniy hayotida jamiyatning modernizatsiya va an’anaviylik, milliylik va globallik, barqarorlik va o‘zgarish o‘rtasidagi murakkab dialektik jarayonni o’zida ifodalaydi. Uni bartaraf etish yoki kamaytirish faqat ma’muriy yoki iqtisodiy choralar bilan emas, balki falsafiy asoslangan madaniy siyosat, inklyuziv ta’lim tizimi, ijtimoiy muloqotni rivojlantirish va milliy identitetning ochiq, moslashuvchan modelini shakllantirish orqali amalga oshirilishi lozim. Shu jihatdan, mamlakatimiz ijtimoiy-madaniy hayotida turli madaniy guruhlar, subkulturaviy harakatlar va g‘oyaviy oqimlar mavjud bo‘lib, ular, ko‘pincha, markaziy ijtimoiy narrativdan chetda qolgan ya’ni postmodern ma’nodagi marginal guruhlar deb qaraladi. Umuman olganda, marginallik O‘zbekiston jamiyati uchun faqat muammo emas, balki ijtimoiy o‘zgarishlar mohiyatini anglash, madaniy barqarorlik va taraqqiyot yo‘llarini qayta ko‘rib chiqishga undovchi strategik falsafiy signal sifatida baholanishi lozim.

Adabiyotlar tahlili. Qadimgi manbalarni o‘rganishda o‘zbek jamiyatning ayrim guruhlari tarixiy voqealarda aks etmay qolgan holatlar, qarama-qarshi nuqtai nazarlar va lokal madaniyatlar (shaxsiy manbalar, tarixiy qissalar) natijasi sifatida ma’naviy marginallashuv ko‘rinishiga ega bo‘lgan. Bu holat tarixshunoslikda “marginal tarix” sifatida ham tahlil qilinishi mumkin.

Marginal tarix rasmiy tarixiy normotivlardan tashqarida qolgan tajribalar, qarama-qarshi nuqtai nazarlar va lokal madaniyatlarni o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, u tarixni biryoqlama emas, ko‘p ovozli jarayon sifatida talqin qilish imkonini beradi. Shaxsiy manbalar, og‘zaki tarix, tarixiy qissalar, folklor namunalarining tahlili aynan shu yo‘nalishning muhim metodologik asosini tashkil etadi. Shu bois, zamonaviy tarix falsafasi va tarixshunoslikda marginal tarixni o‘rganish nafaqat ilmiy, balki ma’naviy-ijtimoiy ahamiyatga ega. U tarixiy adolatni tiklash, madaniy xilma-xillikni e’tirof etish hamda jamiyatda inklyuziv tarixiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Muhokama. Hozirgi kunda mamlakatimiz ijtimoiy-madaniy jarayonlarida marginallashuvning bir qator ko‘rinishlari mavjud. Ular qatoriga quydagilarni kiritish mumkin, ya’ni:

Birinchi ko‘rinishi sifatida internet orqali tafakkuri shakllangan shaxslar va subsubkulturaviy guruhlarni (masalan, hip-hop, street-art, feminist blogerlar, alternativ madaniyat tarafdorlari) ta’kidlash zarur.

Ushbu guruhlar, ko‘pincha, ijtimoiy normalarni muhokama qiladi va ularga muqobil identitetlarni ilgari suradi. Bizning fikrimizcha, bu turdagi marginallik modern jamiyatga xos bo‘lgan individuallashuv va pluralizm jarayonlarining bevosita mahsulidir. U ijtimoiy ongda tanqidiylikni kuchaytirib, ijodiy o‘zini ifodalash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ikkinchi ko‘rinishiga esa ayollar harakatlari, jinsiy tenglik yoki gender identitet masalalarini ilgari suruvchi guruhlarni kiritish mumkin. Ushbu guruhlar ham ko‘p hollarda ijtimoiy “chegaralarda” mavjud bo‘lib, dominant patriarxal diskursdan tashqarida turadi. Ushbu guruhlar mamlakatimiz ijtimoiy-madaniy hayotida marginallikning alohida va murakkab ko‘rinishini tashkil etadi. Ularning marginal maqomi, avvalo, jamiyatda tarixan shakllangan patriarxal ijtimoiy tuzilma, an’anaviy gender rollari va normativ axloqiy tasavvurlar bilan diskursiv ziddiyatga kirishishi bilan izohlanadi. Mazkur guruhlar mavjud ijtimoiy tartibni rad etishdan ko‘ra, uni qayta talqin qilish va transformatsiya qilishga intiladi.

Falsafiy nuqtai nazardan, ushbu harakatlar ijtimoiy adolat va tan olinishi masalasini kun tartibiga olib chiqadi. Mamlakatimiz sharoitida ayollar va gender masalalarini ko‘tarayotgan guruhlarning marginalligi aynan shu tan olinmaslik bilan bog‘liq bo‘lib, ularning ovozi ko‘pincha norasmiy yoki chekka diskurs sifatida qabul qilinadi. Bu guruhlarning faoliyati, asosan, internet platformalari, fuqarolik jamiyati tashabbuslari va norasmiy intellektual makonlar orqali amalga oshiriladi. Natijada ular an’anaviy ijtimoiy institutelar bilan to‘liq integratsiyalanmagan, biroq muqobil normativ makon yaratgan subyektlar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, ular “ijtimoiy chekka”da emas, balki jamiyat ichida mavjud bo‘lgan parallel ma’naviy-madaniy maydonda faoliyat yuritadi

Tahlillarga ko‘ra, an’anaviy ijtimoiy rollar ayollarni ko‘pincha cheklangan ijtimoiy makonda ushlab turadi. Shahar ayollari modernizatsiya ta’sirida ko‘proq erkinlikka ega bo‘layotgan bir vaqtda, ayrim qishloq hududlarida bu erkinliklar hali to‘liq ro‘yobga chiqmagan. Bu tafovut ayollarning o‘zini anglashida, jamiyatda o‘z o‘rnini topishida marginallik holatlarini vujudga keltiradi. Shu bilan birga, “hozirgi zamonda yangi qadriyatlar tizimlarini ham o‘zimizga qabul qilyapmiz. Buning yorqin misolini oilada gender tenglik tamoyillarini o‘rnatish va oilaviy maishiy zo‘ravonlikning oldini olishda ko‘rish mumkin”[1]. Xususan, YUNISEF va O‘zbekiston Respublikasi Gender tenglik bo‘yicha komissiyasining 2021-yilgi hisoboti ayollar, ayniqsa, qishloq hududlardagi ayollarning ta’lim va bandlik sohasidagi ishtiroki pastligini ko‘rsatgan. Bu holat ularni iqtisodiy jihatdan mustaqil bo‘lishdan cheklaydi va jamiyatda chekka rolga tushiradi. Shu bilan birga, gender stereotiplari ham ayollarni passiv ijtimoiy rolga “mahkum” etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yilda qabul qilingan “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi hamda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunlari, ya’ni eng asosiy qadam qo‘yildi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Xususan, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunning 11-moddasida: “tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchilarga hamda ularning bolalariga, shu jumladan ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlariga keltirilgan tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchilarga hamda ularning bolalariga birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatish, ularni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, shuningdek tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchilarni bepul davolash chora-tadbirlarini amalga oshiradi” [2]. Mamlakatimizda qabul qilinayotgan har bir normativ-huquqiy hujjat loyihasini gender huquqiy ekspertizasidan o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi. Bu esa ayol ham erkak ham teng huquqliklari inobatga olinishidan dalolat beradi. “Mamlakatimizda xotin-qizlarning ahvolini yaxshilash, ularning erkinligi, huquqi, manfaatlari va sog‘ligini muhofaza qilish mamlakat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari qatoridan joy olgan. Albatta, gender g‘oyasiga ko‘ra dunyoda ayol muammosi – inson muammosi, inson huquqi – ayol huquqidir” [3].

Tahlil va natijalar. Marginallik mamlakatimizda ham ichki, ontologik holat (ekzistensial), ham tashqi, ijtimoiy-madaniy konstrukt (postmodern) sifatida mavjud. Bu holat nafaqat muammo, balki ijtimoiy yangilanish, muqobil dunyoqarashlar va madaniy pluralizm manbai ham bo‘la oladi. Bugungi kunda marginallik mamlakatimiz ijtimoiy-madaniy hayotida murakkab va ko‘p qatlamli hodisa sifatida namoyon bo‘lib, u asosan shahar-qishloq tafovutlari, mehnat migratsiyasi, diniy erkinliklar, gender tengsizligi hamda yoshlar va axborot maydoni o‘rtasidagi tafovutlar orqali o‘z ifodasini topmoqda. Ushbu ijtimoiy guruhlar zamonaviy jamiyat talablariga to‘liq moslasha olmasligi yoki mavjud madaniy va institutsional strukturalardan chetda qolishi ularning marginallashuviga ta’sir qilmoqda. Shuningdek, mamlakatimiz sharoitida marginallik nafaqat iqtisodiy va siyosiy, balki madaniy, axloqiy va identitetga oid muammolar bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu ma’noda, “ikki madaniyatlilik” holatidagi migrantlar, diniy e’tiqodini ochiq ifoda eta olmayotgan fuqarolar yoki an’anaviy qadriyatlar bilan global madaniyat o‘rtasida yo‘l topolmayotgan yoshlar jamiyat ichida o‘zini “begona” his qilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda marginallik fenomeni nafaqat nazariy, balki real ijtimoiy-madaniy jarayonlar orqali ta’sir etmoqda. Ayniqsa:

- global madaniyat va an’anaviy qadriyatlar to‘qnashuvi;
- yoshlar ongidagi identitet inqirozi;
- mehnat muhojirlari, ayollar, ijodkorlar va subkulturaviy guruhlarning jamiyatdagi o‘rni va statusini alohida aytish mumkin.

Bizning fikrimizcha, marginallik fenomeni mamlakatimiz ijtimoiy-madaniy hayotida ziddiyatli, biroq ayni vaqtda ijtimoiy yangilanish, yangicha qarashlar, madaniy inklyuzivlik va subyektiv erkinlik manbayi sifatida o‘rganilishi lozim.

Marginallikning mamlakatimiz ijtimoiy-madaniy hayotiga ta’sirlaridan biri sifatida aholi ijtimoiy hayotidagi mehnat migratsiyasining kuchayish holatini alohida ta’kidlash zarur. Xususan, 2022-yilgi rasmiy hisobotlarga ko‘ra, 2 milliondan ortiq mamlakatimiz fuqarolari xorijda, asosan, Rossiyada mehnat faoliyati bilan shug‘ullanmoqda. “Ularning ko‘pchiligi oraliq holatda – vatandagi an’anaviy madaniyatdan uzoqlashgan, ammo xorijiy madaniyatga ham to‘liq integratsiyalasha olmagan. Bu “ikkilamchi madaniyatli shaxs” fenomeniga olib keladi, bu esa psixologik beqarorlik, o‘zlik inqirozi va ijtimoiy chetlashuvga sabab bo‘ladi”[4]. Falsafiy jihatdan bu holat shaxsning identiklik muammosi bilan chambarchas bog‘liq: inson o‘zining “kimligi” va “qayerga mansubligi” haqidagi barqaror tasavvurlarini yo‘qotadi. Natijada, ekzistensial beqarorlik, ichki bo‘shliq va ijtimoiy begonalashuv kuchayadi.

Eng ahamiyatlisi, bugun bu masalaga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilib, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha salmoqli ishlar ham amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlab o‘tilganidek, “Har qanday mamlakatda bo‘lgani kabi bizda ham kam ta’minlangan aholi qatlamlari mavjud. Turli hisob-kitoblarga ko‘ra, ular taxminan 12–15 foizni tashkil etadi. Bu o‘rinda gap kichik raqamlar emas, balki aholimizning 4–5 millionlik vakillari haqida bormoqda” [6].

Xulosa. O‘zbekiston ko‘p madaniyatli jamiyat sifatida turli dinlar, etnik guruhlar va madaniy qadriyatlarni o‘z ichiga olgan. Lekin diniy erkinlik va jamiyatdagi sekulyar qadriyatlar o‘rtasidagi qarama-qarshilik ba’zida ayrim diniy guruhlarni marginal holatga tushirib qo‘yadi. Masalan, diniy e’tiqodini ochiq ifoda etuvchi shaxslar ba’zida ijtimoiy stereotiplarga uchraydi yoki rasmiy muassasalar bilan muvofiqlashishda muammo yuzaga keladi. Xulosa qilib aytganda, bugun Yangi O‘zbekiston ijtimoiy-madaniy hayotida sodir bo‘layotgan zamonaviy o‘zgarishlar marginallik fenomenining murakkab va ko‘p qirrali shakllarini yuzaga chiqarmoqda. Shahar va qishloq o‘rtasidagi ijtimoiy-madaniy tafovut, mehnat migratsiyasi oqibatida yuzaga kelgan “ikki madaniyatlilik” holati, diniy erkinliklarning ijtimoiy muhitda to‘liq qabul qilinmasligi, genderga oid ijtimoiy rol cheklovlari hamda yoshlar ongida yuzaga kelayotgan madaniy identitet inqirozi bugungi jamiyatda marginallikning asosiy ko‘rinishlaridir. Ushbu holatlar mamlakatimizda ijtimoiy integratsiya jarayonlarining yetarli darajada izchil emasligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati/References:

(1). G.O‘razaliyeva. Gender munosabatlarining ayollar huquqiy madaniyatini takomillashtirishga ta’siri. Fals. fan. bo‘y. fals. nom... dis. avtoref., T., O‘zMU, 2006, 23-bet.

(2). O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-561-qonuni. https://lex.uz/uz/docs/-4494709

(3). D.Yo‘lchiyeva. Oilalardagi barqaror ijtimoiy hayotni ta’minlashda gender tenglik tadqiqotlarini o‘rganish va tahlil etish. “Ilmiy tadqiqotlarda gender masalalarini inobatga olish” mavzusidagi Yozgi maktab yakunlari bo‘yicha to‘plam materiallari. T., «Mahalla va oila» nashriyoti, 2023, 43-bet.

(4). Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO). O‘zbekiston bo‘yicha mehnat migratsiyasi bo‘yicha hisobot, 2022.

(5). Sultonov I. Mehnat migrantlari himoyasi kuchaytiriladi. “Xalq so‘zi”, 2020-yil 5-avgust.

(6). Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. T., “O‘zbekiston” NMIU, 2020, 30-bet.